

## ZULFIYAXONIM XAYOTIDA HAMID OLIMJONNING O'RNI

**Mustafakulova Nilufar Elmurod qizi**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Pediatriya, stomatologiya  
xalq tabobati fakulteti Xalq tabobati yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Sharq ayollari ichida porlagan, o'zbekning taniqli shoirasi Zulfiyaxonim Isroilovaning muhabbat ila porlagan hayot yo'li, mashaqqatlari va shu hayot sinovlariga qaramasdan doim oldinga intilgan, izlanishlar va ijod qilishdan to'xtamagani haqida so'z boradi. Shoira ijodida asosiy mavzular va ishqqa to'la she'riy misralarga e'tibor qaratilgan.*

**Аннотация:** *Эта статья о жизненном пути блистательной среди женщин Востока Зульфийи Ханым Исраиловой, известной узбекской поэтессы, сияющей любовью, о том, как она всегда стремилась вперед, исследовала и творила, несмотря на свои невзгоды и испытания. Творчество поэта сосредоточено на главных темах и поэтических стихах, полных любви.*

**Annotation:** *This article is about the life path of Zulfiya Khanim Israilova, who shines among the women of the East, the famous Uzbek poetess who shines with love, how she always strove forward, researched and created despite her hardships and trials. The work of the poet focuses on the main themes and poetic verses full of love.*

**Kalit so'zlar:** *Zulfiya, Isroil Degrez, Hamid Olimjon, iffat, yolqinlarida, iztirob, "Izlayman", Maqsud Qoriyev, muftalo, Jizzax, ijod maktabi.*

### KIRISH

Zulfiya Isroilova – Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol! O'z asrining durdonasi – muhabbat va bahor kuychisi. Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasodif emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib ajralib turardi. Buning sababi oilasidagi ijodiy muhit – yosh Zulfiyada badiiy ijodga qiziqish uyg'otardi.

Shoira bolaligini shunday eslaydi: „Otamni.. Isroil Degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan...”

“Onam ohista va xotiramda saqlanishicha, ma'yus bo'lganlar. Lekin ularda qullik horg'inligi bo'lmagan... Ular qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalar bilganlar, ularni mohirona aytib, kuylab bera olganlar, biz-farzandlarini sehrli ertaklar bilan qiziqтира

olganlar, - eslaydi Zulfiya, onasini xotirlar ekan. - Mo'jizalarga sabab bo'luvchi, dunyoni fosh qiluvchi, insoniyatni ajoyibotlar sari yetaklovchi "so'z"ga bo'lgan mehrni oddiygina ayol - onam uyg'otganlar..." Tabiiyki, onamlar farzandlari o'qimishli, madaniyatli insonlar bo'lishini istaganlar. Ularning orzusi ro'yobga chiqdi ham.

Asosiy qism. O'zbek lirikasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoir va shoirlar orasida Zulfiya ijodi alohida ajralib turadi. Go'zal qalb sohibasi, sadoqat kuychisi deya nom olgan Zulfiyaning she'riy olamining bosh mavzusini muhabbat tashkil etadi, desak xato bo'lmaydi. Haqiqatdan ham, shoira qo'liga qalam olgan chog'dan boshlab umrining so'nggiga qadar shu pok tuyg'ularini ulug'ladi. Iffat, or-nomus, vafo, hayo, sadoqat, butun bir odamiylikni ishq ila kuyladi.

Zulfiya ijodi rang-barang tuyg'ular olami. Bu she'rlarda har qanday kunda, har qanday sinovda o'zini dadil tuta olgan o'zbek ayol qiyofasini ko'ramiz, ovozini eshitamiz, dadini his qilamiz. Zulfiya ijodida butun bir asrning hayotini, tarixini kuzatish mumkin. Turli shakllarda, xilma-xil mavzularda yozilgan she'rlarida o'zbek xalqining XX asr davomida bosgan yo'liga ayolga xos nazokat bilan nazar tashlanadi.

Zulfiya deganda ko'z oldimizga vafoga, sadoqatga to'la she'riy satrlar gavdalanadi. Bu vafo va sadoqat tuyg'ulari iste'dodli, mashhur shoir Hamid Olimjonga atalgan, muhabbat jo bo'lgan satrlar edi. Hamid Olimjon bilan kechirgan baxtli, lekin qisqa turmushi, undan judo bo'lishi, qisqasini aytganda shoironing hayot yo'li sadoqat va vafo timsoli bo'lib qoladi.

Buyuk shoir, nodir insoniy fazilatlar sohibi Hamid Olimjon Zulfiyaga hamma narsada o'rnak bo'lgan. Zulfiya Hamid Olimjonning ijod maktabida ta'lim oldi, undan fikirlash, mehnat qilish va she'r yozishni ham, do'stlarga mehribon, dushmanga esa shavqatsiz bo'lishni ham o'rgandi. Hamid Olimjon Zulfiya qalbiga hamroh va maslahatchi bo'ldi. Zulfiya Hamid Olimjon bilan birga kechgan shu baxtli yillarida har qanday iste'dod doimiy mehnat tufayli charxlanib borishi, haqiqiy iste'dod egasi buyuk mehnat intizomiga ega bo'lishi lozimligini ko'rdi.

Zulfiyaning she'rlarida uning kechinmalari o'ta mohironalik bilan ifoda etilganki, o'quvchi she'rlarni o'qish bilan birga o'zini shoira billan birga his qiladi, uning quvonch va qayg'ulariga sherik bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda shoira bilan birga yashaydi.

Deydilarki, seni ko'rganda  
Ko'zlarimda yonar jonli o't,  
O'sha o'tning yolqinlarida  
Sendan o'zga bor narsa unut.

Birga kechirgan qisqa hayotlari davomida ular chin muhabbatni, baxtni his qiladilar. Turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng shoira ijodida sog'inch, hijron mavzusi yetakchilik qiladi. Ammo shoira hayotning bu sinovi qarshisida dovdirab qolmadi, farzandlari uchun o'zida jasorat topib, oyoqqa turdi, yolg'izlikning achchiq azoblariga dosh berib, chinakam sadoqat timsoliga aylandi.

Ko'pincha vaqtning ahamiyati, uni hayrli ishlarga sarf etish haqida yoshi ulug'lar nasihat qilishadi. Zulfiyaxonim esa vaqt, umr oldidagi mas'ulyatni hamisha teran his

etadi. U “Hayot kitobim bexos varaqlab...” deb boshlanuvchi mashxur she’rini oltmish yoshi ostonasida yozgan ekan. Undan keyingi kechgan umri ham shu satrlar mag’zidagi e’tirofga hamohang:

“Hayot kitobimni bexos varaqlab  
Men o’tgan umrga achinmay qo’ydim.  
Tabassum o’rnida kuldim charaqlab,  
Suyish kerak bo’lsa, telbacha suydim”.

Bu hayotda boshiga tushgan har qanday mushkul sinovni ham, quvonch-u omadni ham, muvaffaqiyatni ham sabr-u qanoat, shukronalik bilan yengish aynan Zulfiyaxonimga xos edi.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:  
Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,  
Izzat nima bildim.  
Shu-da bir yashash!

Zulfiyaxonimning ushbu she'rini o'qir ekanmiz, uning turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati qanchalik yuksak bo'lganini va uning o'limidan qanchalar iztirob chekkanini his qilishimiz mumkin. Biroq turmush o'rtog'i bilan. birga kechirgan qisqa umriga qaramasdan, uzoq yillar davomida oilasiga va umr yo'ldoshiga sadoqatini yo'qotmadi va Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi. Bir umr o'z yoriga sadoqat bilan yashagan shoira "Hijron kunlarida", "O'rik gullaganda", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?", "Sensiz", "Izlayman" kabi she'rlarida Hamid Olimjonga bo'lgan cheksiz mehr-u sadoqatini, sof sevgisini ifoda etgan.

“Bilasizmi, Zulfiya opa gaplarini shunday boshlar edilar, – deb yozadi taniqli yozuvchilarimizdan Maqsud Qoriyev, – ko’pincha odamlar mening ijodim haqida so’zlashmay, sadoqatim haqida gapirishadi. Mening ijodim Hamid Olimjonning ijodi bilan bog’lanib ketgan. Uni yo’qotib qo’yganimganidan so’ng umrim bo’yi uning dardi bilan kuyib-yonib yashadim. She’rlarimda ham qadrdonimning ruhi bor”, – der edilar.

“Hayotda men uchun qolarding tirik,  
Qalaming mujdasin kutardim mushtoq...  
Ma’yus taqdiringga yashab men sherik,  
Mushkul bo’layotir shodlik yaratmoq.  
Nega tirik ekan tashlab ketmading,  
Tashlab ketmading-a, boshlab ketmading?!” (Sensiz she’ridan)

Shoira o’z suyukli yori Hamid Olimjonning yorqin xotirasi bilan yashagan har bir kunini o’z she’rlari orqali kuyga solar ekan, quyidagi misralarda o’ziga murojaat qiladi:

“Kel, kuysiz yurakka qo’shiq bag’ishlab,  
Kulgusiz lablarga o’rgat tabassum.

Baxting soch, dard bo'lsa tishingga tishlab,  
Yenga olsang yeng-u bo'lma hech taslim".

Ushbu satrlarda shoira o'zidan bag'oyatda ulkan jasorat va sabr kutib, yangi yo'llar ochishni maqsad qiladi, o'ziga katta sabr kerakligini, "dardni tishingga tishlab" yeng deya ifodalaydi.

"Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor,  
Ketma, aslo ketma ko'zimdani yiroq!  
Garchi tushimda ham seni bir ko'rish –  
Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq.  
Na go'zal tunlarki sevgili tunlar,  
Uzun qish tunlari o'zing tushimda.  
Qora ko'zlarining dilbar nigohi,  
Kun bo'yi yashaydi aql-u hushimda."

Shoira ushbu she'rida turmush o'rtog'i Hamid Olimjonni xotirlab, uni sog'inib kechalar uyqusi qochib Hamid Olimjonga bag'ishlab shu so'zlarni xayolan unga aytgan: "Meni tashlab ketma, har doim xayolan sen bilan birgaman, sendan ayrilishim va seni sog'inganda ko'ra olmasligim bu men uchun qanchalik og'ir bir tuyg'uki buni so'z bilan ham ifodalay olmayman..." Shoira o'zining bu haqdagi dil rozilarida shunday deydi: "Men hayotni undagi hamma yaxshi narsalarni tasdiqlash orqali yomonlik bilan kurashaman". Shunday og'ir bir dard bilan esga oladi shoira o'z turmush o'rtog'ini va unga atab "Hijron kunlarida", "Ne baloga etding muftalo", "Sen qaydasan yuragim" kabi she'rlarni yozgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga xalqimizning sevimli shoirasi, turmush o'rtog'iga suyukli rafiq, farzandlariga mehribon ona bo'lgan. Bugun ushbu maqolani yozar ekanman, qalbmida titroq, havas ila Zulfiyaxonimni ijodiga yanada chuqurroq nazar soldim. Bugungi istiqlol kunlarida Prezidentimizning tashabbuslari bilan Zulfiyaxonimning ijodlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Jizzax viloyatida 2017-yil Hamid Olimjon va Zulfiya haykallarining barpo etilishi hamda xuddi shu nom bilan ataladigan maktab-internatining o'z faoliyatini olib borayotganligi fikrimning yorqin namunasidir. Ushbu maktab-internati kelajak- avlodlarni bilimli va ilmli yoshlar Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim izdoshlari qilib tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu maktabda ta'lim olayotgan barcha o'quvchi qizlar ham kelajakda Zulfiyaxonim davlat mukofotini qo'lga kirishga bel bog'laganlar. Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ta'sis etilganligi, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining faoliyat yuritayotganligi, suyukli shoiramizning davlat va xalq e'tirofida ekanligidan dalolatdir. Ayni paytda ijod maktabi erishgan yutuqlar ham talaygina.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tanlangan asarlar (3 jildlik), Toshkent, 1985.
2. [www.til va adabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) sayti
3. [adiblar.gitbook.io](http://adiblar.gitbook.io)
4. Zulfiyaxonim asarlari saylanma-2016.
5. Янги Ўзбекистон <https://yuz.uz>
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi